



2018 yil iyul oyidagi holatga ko'ra

## Germaniyada nikohdan o'tish maqsadida viza olish uchun kerakli hujjatlар haqida eslatma

### Umumiy ma'lumotlar:

Har bir arizachi hujjatlarni **shaxsan o'zi** topshirishi shart. **Viza olish uchun qabulga yozilish faqat internet orqali amalga oshiriladi.** **Batafsil ma'lumotlar „[Qabulga yozilish tizimi haqidagi eslatma](#)“da keltirilgan.**

**O'zbekistonda berilgan hujjatlarni** tasdiqlash sharti bekor qilingan. O'zbekistonlik qalliqning nikohdan o'tish huquqiga egaligi haqidagi hujjatni topshirish majburiyatidan ozod etish va nikohni rasmiylashtirish jarayoni doirasida kerak bo'ladi va O'zbekiston Respublikasida berilgan ma'lumotnomalar uchun Germaniya FHDYOsiga xizmat yordami sifatida hujjatlarni qayta tekshirish jarayoni amalga oshiriladi. Batafsil ma'lumotlar elchixonaning internetdagi [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de) web-sahifasida joylashtirilgan „**[O'zbekiston Respublikasida berilgan hujjatlarni qayta tekshirish haqidagi eslatma](#)**“ da keltirilgan.

Viza so'rvnomasi **Germaniyadagi xorijliklar masalalari bo'yicha mutassadi idoraga (Ausländerbehörde)** qaror qabul qilish uchun yuboriladi. Shu shababli, Siz o'z so'rvnomangizda qalliqning **to'liq manzilini** (ko'cha, pochta indeksi va yashash joyining nomi) ko'rsatishingiz lozim.

Germaniya hududiga kirib kelishingiz bilan bu haqida yashash joyingizdagи xorijliklar masalalari bo'yicha mutassadi idoraga (**Ausländerbehörde**) bevosita xabar berishingiz kerak. Ushbu idora Germaniya hududida qolishingiz uchun yakuniy ruxsatni beradi.

So'rvnomalarni ko'rib chiqish **eng kamida 6-8 haftalik muddatni** tashkil etishiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz. Elchixona ushbu muddat mobaynida hujjatlaringizni ko'rib chiqish haqidagi savollar bilan murojaat qilmasligingizni so'raydi. Hujjatlarni ko'rib chiqish jarayoni haqidagi ma'lumot telefon orqali ham berilmaydi.

Agar so'rvnomangiz borasida qaror qabul qilingan bo'lsa, elchixona Siz bilan bog'lanadi.

Viza bermaslik haqida qabul qilingan qaror pochta yoki elektron pochta orqali faqat yozma ravishda yuboriladi yoki arizachi ushbu qarorni elchixonaning viza bo'limidan shaxsan o'zi olib ketishi mumkin. Sizga viza rasmiylashtirish uchun ruxsat berilsa, zarur bo'lgan holatlarda Sizga xorijda doimiy yashash uchun chiqish vizasini olishda kerak bo'ladi va O'zbekiston Respublikasi mutasaddi idoralariga (XChK - OVIR) taqdim etiladigan ma'lumotnomha berilishi mumkin.

**Qabulga yozilish haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar va viza bo'limining qabul vaqtları „[Viza olish uchun kerakli hujjatlarni topshirish haqida eslatma](#)“da va „[Qabulga yozilish tizimi haqida eslatma](#)“da keltirilgan.**

Germaniyada **nikohdan o'tish maqsadida** olinadigan vizaga so'rovnama berish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

Barcha hujjatlar/ma'lumotnomalar/tarjimalar **asl nusxada va har bir hujjatdan ikkitadan DIN A4 formatdagi nusxa bilan** topshirilishi lozim ekanligiga e'tibor berishingizni so'raymiz (asl nusxalar hujjatlar tekshirilganidan keyin Sizga qaytariladi). Xorijiy tildagi hujjatlar vakolatga ega tarimon tomonidan nemis tiliga o'girilgan bo'lishi lozim.

1. **Nemis tilida bat afsil to'Idirilgan, shaxsiy imzoingiz qo'yilgan 2 dona viza so'rovnomasi blanki.** Blanklarni elchixonaning internetdagи [www.taschkent.diplo.de](http://www.taschkent.diplo.de) web-sahifasidan olish mumkin.
2. **pasport**, uning 2-3 (shaxsiy ma'lumotlar) hamda O'zbekistonda ro'yxatga qo'yilganlik to'g'risidagi ma'lumotlar haqidagi sahifalaridan nusxasi bilan;
3. Germaniyada yashovchi qalliq pasportining barcha sahifalaridan nusxa;
4. **Chet elliklarning Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq izoh va arizachining undagi shaxsiy imzosi**
5. Qoidaga binoan: **Germaniya hududida bo'lish haqidagi qonunning 66-68 moddalariga ko'ra**, Germaniyada yashovchi qalliqning nikoh tuzilishiga qadar bo'lgan xarajatlarni o'z zimmasiga olish bo'yicha **majburiyat xati** va qalliq pasportining kseronusxasi. Agar qalliq Germaniya fuqarosi bo'limasa, uning Germaniya hududida bo'lishiga ruxsat berilgan pasport sahifasining nusxasini ham taqdim etish lozim. Ushbu kafolat xati xorijiliklar masalalari bo'yicha mutassadi idorada (**Ausländerbehörde**) rasmiylashtiriladi. *Xorijiliklar masalalari bo'yicha mas'ul idoralarning ba'zilari ushbu kafolat xatini so'rov nomda taqdim etishning keyingi bosqichlarida talab qilishadi. Agar Sizda bu borada savol paydo bo'lsa, ma'lumot uchun xorijiliklar masalalari bo'yicha mas'ul idoraga murojaat qiling.*
6. **Nikoh tuzilishi bo'yicha qo'yilgan barcha talablar bajarilganligi haqida Germaniyadagi nikohni qayd etish idorasi tomonidan berilgan ma'lumotnoma.** Nikoh **bevosita** ushbu tasdiqnomada **berilganidan keyin** tuzilishi kerak. Nihoh tuzish haqidagi ariza u topshirilgan kundan olti oy o'tgach, o'z kuchini yo'qotadi. Ushbu muddat davomida nikoh tuzishning iloji bo'limasa, Germaniya fuqarosi bo'limagan qalliq o'z vataniga qaytib ketishga majbur bo'ladi.

**Germaniya FHDYO sida nikohdan o'tish maqsadida ariza berish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:**

- Tug'ilganlik haqidagi guvohnomangiz;
- Turmush qurmaganligingizni tasdiqlovchi ma'lumotnoma;
- zarur hollarda: ajrashganlik yoki avvalgi turmush o'rtog'ining vafot etganligi to'g'risida hujjat;
- zarur hollarda: umumiy farzandlarning tug'ilganlik haqidagi guvohnomalari;

**Taqdim etish zarur bo'lgan hujjatlar haqida ma'lumot olish uchun mahalliy FHDYO bo'limiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat etishni maslahat beramiz.**

Avvalgi nikohdan bo'lgan va voyaga yetmagan farzandlar birgalikda safarga chiqayotganda viza so'rovnomasini topshirish uchun „**Turmush o'rtog'i va farzandlari bilan birlashish maqsadida viza olish uchun kerakli hujjatlar haqida**“gi, va ayniqsa, yakka vasiylikni va og'ir vaziyat uchun yechim topish doirasida Germaniyaga safarga chiqishni asoslovchi hujjatlar haqidagi tegishli eslatmalar bilan tanishib chiqishingizni so'raymiz.

Germaniyadagi FHDYO bo'limi tegishli hujjatlarni (yuqoridagi „Umumiylar“da keltirilgan izohga qarang) qayta tekshirib chiqqanidan keyingina nikoh qurish shartlari bajarilganligini tasdiqlashi mumkinligiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz.

7. **Nemis tilidan bilimga** (A1 darajasida) ega ekanlikni tasdiqlovchi hujjatlar; „[Oila birlashishi uchun nemis tili bo'yicha bilimni tasdiqlash haqida](#)“ gi alohida eslatmaga e'tibor qarating.

Nikohdan o'tish maqsadidagi viza uchun konsullik badali 75 yevroni va har bir voyaga yetmagan bola uchun 37,50 yevroni tashkil etadi. Viza badal to'lovi viza so'rovnomasini topshirilayotgan vaqtida **faqat o'zbek so'mida** amalga oshiriladi. Kupyurlar 2001 yildan eski bo'lmasi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart.